



Xususiy kapital tarkibi va hisobi

Shamidinova Nafisa Qilichboyevna

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar insituti

Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti Buxgalteriya hisobi

va audit ta’lim yo’nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Respublikamizdagi xususiy kapital tarkibi va hisobi to’g’risida so’z boradi

Kalit so’zlar: Xususiy kapital, davlat korxonalari, aksionerlik jamiyati,rezerv kapitali,masulyati cheklangan jamiyat,yangi taxrirdagi buyruqlar

Bozor iqtisodiyotida hozirgi kundagi korxonalar oddiy resurslarini o’zlari shakilantirib oladi. Asosan bunday resurslar korxona ta’sischilari tomonidan ustav kapitali bilan qo’shib yaratiladi. Xususiy kapitalning Respublikamiz hududidagi turli xil korxonalarda tashkil topishi:

Xususiy kapitalning tarkibiy tizimi

Xususiy kapital qimmatli qog’ozlar turi va fond birjasida ochiq sotilmaydigan operatsion kompaniyalardagi qimmatli qog’ozlar va qarzlardan iborat aktivlaridir.

Korxonaning barcha moddiy hususiy kapitali aktivlarning bir qismi sifatida buxgalteriya balansining aktivida joylashadi va nomoddiy kapitallar nomodiy aktivlarda ifodalanadi va buni ham buxgalteriya balansining aktiv qismiga kiritishimiz mumkun.

Korxonalarda xususiy kapital qancha muddatda foyda berganligi bilan tasniflanadi va biz barcha xususiy kapitallarni uzoq muddatli va qisqa mudatli xususiy kapital turlariga



bo'lishimiz mumkun. Xususiy kapitalning hizmat yili 1 yilga deb belgilangan. Ushbu duddatga ko'ra xususiy kapital 1yildan ko'proq hizmat qilgan bolsa uzoq muddatli va to'laqonli 1 yil hizmat qilgan bo'lsa qisqa muddatli xususiy kapital hisoblanadi. Qisqa muddatli xususiy kapitalarga ishlab chiqarish zaxiralari, tovar moddiy boyliklari, pul mablag'lari va boshqalarni kiritishimiz mumkun. Qisqa muddatli xususiy kapitalni “aylanma aktivlar” ham deb atashimiz mumkun. Korxonada ishlatilishiga qarab xususiy kapitallar foydalanishdagi va zaxiradagi turlarga bo'linadi. Foydalanishdagi kapital – korxonaning moliyaviy faoliyat jarayonida qatnashadigan xususiy kapitallarga aytiladi. Zaxira kapitali-korxonada vaqtinchalik ish faoliyatiga ega emas, mablag' yetishmaganligi uchun ishga tushurilmagan bino, uskuna, jihozlardan iborat.

Davlat korxonalarining ustav kapitali davlat tomonidan korxonaning doimiy tasarufiga tekinga berilgan moddiy resurslar va pul mablag'lari summasidir. Davlat korxonalarida xususiy kapitali yaniy ustav kapitalini shakillantirish uchun davlat korxonalaridan yuqori turadigan tashkilotlar tomonidan korxonaning tashkil etilishi va unga ustav kapitalining o'tkazilishi to'g'risidagi buyrug'i ta'sis hujjati hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyat ustav kapitali uning aksiyadorlari sotib oladigan aksiyalarning nominal qiymatidan iborat bo'ladi. Aksiyalar tabiiy ravishda ko'payishi yoki kamayishi mumkun. “Aksiyadorlik jamiyatlari ba aksionerlarni himoya qilish to'g'risida”gi qarorning 21-moddasiga binoan “Jamiyatning ustav fo'ndi aksiyalarning oshishi yoki qo'shimcha aksiyalar joriy qilinish bilan kamayishi mumkun.” Ustav kapitalining kamayishi aksiyalarning umumiy sonining qisqarishi bilan sodir boladi.

Rezerv kapitali-korxona tomonidan ko'rilgan zararni qoplash, imtiyozli aksiyalar uchun dividend to'lash, aksiyalarni qayta sotib olish uchun ishlatiladi. Shu bilan bir qatorda rezerv kapitalining hisobvaroqlari uzoq muddatli aktivlarning qayta baxolanishida yuzaga keladigan infulyatsion rezervlarga muvofiq foyda hisobidan tashkil qilinadigan rezerv hisobi uchun mo'ljallangan. Rezerv kapitali har yili sof foydadan ajratmalar o'tkazish yo'li bilan jamiyat ustavidan belgilangan miqdorga yetguncha tashkil etiladi.



Ma'sulyati cheklangan jamiyatning ustaav kapitali faqat muassalarning hissalarini hisobiga tashkil topadi va uning ko'payishi, kamayishi hammaning roziligi bilan hissa qo'shuvchilarning ko'payishi yoki kamayishi bilan yuz berishi mumkin. Amaldagi qonunchilikga binoan korxona tashkilot va jamiyatlarda rezerv kapitali tashkil qilinadi. Uning miqdori jamiyat ustav kapitalining 20 foizdan kam bo'lmasligi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O.H.Hamroyev. Iqtisodiy muvozanat va uni ta'minlash mexanizmlari, -T.:TDIU, 2014.
2. D.Tojiboeva. Iqtisodiyot nazaryasi: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma -T.: "O'qituvchi", 2022
3. Ziyonet.uz
4. Arxiv.uz
5. Lex.uz